

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

REFERAT

Mavzu: JAHON VALYUTA TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI

Bajardi: Pulatov U

TOSHKENT 2012

Reja:

- 1. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimi*
- 2. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari*
- 3. Yevropa valyuta tizimi*
- 4. Xalqaro valyuta munosabatlarida oltinning ahamiyati*

Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimi

Valyuta munosabatlari - tashqi savdo, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik, xorijga kredit hamda qarzlarni berish va olish, valyuta va valyuta aktivlarini sotib olish bilan bog`liq bitimlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan, valyuta bilan bog`liq munosabatlardir.

Valyuta munosabatining ayrim elementlari - antik davrda - Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda - qarzga pul to`lashga berilgan tilxat va pul almashtirish shaklida paydo bo`lgan. Keyingi bosqich bo`lib, Yapon, Antverpen va G`arbiy Yevropani boshqa savdo markazlarida “veksel yarmarkalari” rivojlanishi bilan yuzaga chiqqan. Bu davrda hisob-kitoblarni amalga oshirish, valyuta yordamida amalga oshirilgan. Feodalizm davrida va kapitalistik ishlab chiqarish rivojlanishida, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimi banklar orqali rivojlandi. O`tgan asrga kelib esa, xalqaro munosabatlar o`zining mutlaqo yangi ko`rinishini boshdan kechirdi.

Shunday qilib, xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi, jahon bozori tashkil etilishi, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi, jahon xo`jaligining tarkibiy tuzilishi hamda xo`jalik munosabatlari baynanmilalashuvining natijasidir.

Valyuta munosabatlari ishtirokchilariga quyidagilar kiradi: davlat (hukumat, Markaziy va davlat banklari), xalqaro tashkilotlar, yuridik shaxslar (tijorat banklari, korxonalar: import va eksport qiluvchilar, birjalar) va jismoniy shaxslar (brokerlar, chayqovchilar va sayyohlar).

Zamonaviy tashqi iqtisodiy aloqalarda, shu bilan birga valyuta munosabatlarida siyosat va iqtisodiyot, diplomatiya va tijorat, sanoat va savdo uyg`unlashib borayotganligini kuzatish mumkin.

Xalqaro valyuta munosabatlarining davlat tomonidan shakllantiriladigan huquqiy-tashkiliy shakli **valyuta tizimi** deyiladi. Milliy, hududiy va jahon valyuta tizimlarini ajratib ko`rsatish mumkin.

Milliy valyuta tizimi deganda ma`lum davlatni, boshqa davlatlar bilan pulli hisob-kitoblarini amalga oshirishda qo`llaydigan usullari, instrumentlari va

milliy organlarining umumiy yig`indisi tushuniladi. Milliy valyuta tizimi nisbatan mustaqil va faoliyat doirasi milliy chegaralardan chiqsada, u mamlakat pul-kredit tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy va jahon valyutalar tizimlari aloqasi va rivojlanishi, ularning elementlarida namoyon bo`ladi (1-jadval).

Hududiy valyuta tizimi - milliy va jahon valyuta tizimlarining oraliq elementi hisoblanib, u mamlakatlar hududiy guruhi integratsiyasiga xizmat qiladi. Bunga misol qilib, Yevropa valyuta-iqtisodiy ittifoqini keltirish mumkin.

Jahon valyuta tizimi - bu, alohida olingan milliy iqtisodiyotni jahon xo`jaligi bilan bog`lovchi mexanizmdir.

1-jadval

Milliy va jahon valyuta tizimining asosiy elementlari

Milliy valyuta tizimi	Jahon valyuta tizimi
Milliy valyuta	Milliy valyutani konvertirlanish shartlari
Milliy valyuta pariteti	Milliy valyuta kursining tartibi
Valyutaviy chegaraning va nazoratning bor yukligi	Mamlakatning xalqaro valyuta likvidligini tartibga solish
Xalqaro kredit ayriboshlash vositalaridan foydalanishni tartibga solish	Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga keltirish
Milliy valyuta bozori va oltin bozorining tartibi	Mamlakatni valyuta munosabatlarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi milliy
Xalqaro valyuta hisob-kitob birliklari valyuta zahirasi	Valyutalarni o`zaro konvertirlanish shartlari
Valyuta paritetini birxillashtirish tartibi	Valyuta kursining tarribining reglamentatsiyasi
Valyutaviy chegaralarning davlatlararo tartibga solish	Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish
Xalqaro kredit ayriboshlash vositalaridan foydalanish qoidalarini yaxlitlashtirish	Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllarini yaxlitlashtirish
Jahon valyuta bozori va oltin bozorining tartibi	Davlatlararo valyutaviy tartibga solishni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar

Xalqaro kelishuvlar, ikkiyoqlama va ko`pyoqlama shartnoma va aktlar, jahon valyuta tizimining huquqiy asosini tashkil etadi.

Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadi - eksport va import uchun to`lovlarni, tovar, kapital, xizmatlar va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etish orqali samarali vositachilik qilish, shuningdek, xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirish uchun, mamlakatlar o`rtasidagi munosabatlarda qulay muhitni yaratishdan iborat.

Jahon valyuta tizimi yordamida iqtisodiy resurslarning bir mamlakatdan boshqasiga ko`chishi yoki aksincha, ushbu jarayon chegaralanishi, milliy iqtisodiyot mustaqilligi cheklanishi yoki kengayishi, iqtisodiy muammolarni (masalan, ishsizlik, inflyatsiya) bir mamlakatdan boshqasiga "ko`chib o`tishi" mumkin.

Jahon valyuta tizimi faoliyat yuritish va tartibga solishning alohida mexanizmlariga ega va jahon xo`jaligining global maqsadlarini ko`zlasada, u milliy pul va hududiy valyuta tizimlari bilan chambarchas bog`langan.

Jahon valyuta tizimi xalqaro pul munosabatlari tashkil topishining tarixiy shakli bo`lib, u davlatlararo shartnomalar orqali mustahkamlangan.

Jahon, hududiy va milliy valyuta tizimlari doirasida, quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladi:

1) **Valyuta konvertirlanishi** - milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish;

2) Tijorat banklari va birjalarda valyuta oldi-sotdi operatsiyalari. Bu **valyuta dilingi** deyiladi.

Hozirgi kunda, operatsiyalarning asosiy qismi naqd pulsiz holda amalga oshiriladi. Bir bankdan boshqasiga pul o`tkazish vakillik hisobvaraqlar orqali amalga oshiriladi. Banklararo amaliyotda LORO (Siz bizda) va NOSTRO (biz Siznikida) hisobvaraqlari mavjud.

3) Tijorat banklarining depozit-kredit deb nomlanuvchi, valyuta mablag`larini jalb qilish va joylashtirish bilan bog`liq operatsiyalari.

Bu operatsiyalar - o`zaro kreditlash, o`z va jalb qilingan mablag`larni joylashtirish, kreditlarni taqdim etish, rasmiylashtirish va monitoring bilan bog`liq

banklararo operatsiyalardir.

4) Tashqi savdo operatsiyalarida, xalqaro amaliyotda qabul qilingan turli shakldagi hisob-kitoblarda bank xizmati ko`rsatish;

5) Oltin va fond instrumentlari (mulkchilik titullari, obligatsiyalar, ikkilamchi moliyaviy instrumentlar va h.k.) sotish yoki sotib olish maqsadida, moliya bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Bu operatsiyalarning barchasi investitsiya maqsadlarida, shuningdek, chayqovchilik yoki xejerlash (sug`urta) maqsadlarida amalga oshiriladi. Banklar ushbu operatsiyalarni o`z nomidan yoki mijoz topshirigiga ko`ra amalga oshiradilar;

6) Kredit (debit) kartochkalarining egalari xizmat ko`rsatish bilan bog`liq operatsiyalar;

7) Bank xalqaro transfertlari (dividend, foiz, pensiya to`lovi, aliment, hadyalar, sayyohlarga xizmat ko`rsatish va h.k.) amalga oshirish.

Zamonaviy valyuta tizimi, uning ham hududiy (geografik jihatdan), ham vaqt jihatdan (kechayu-kunduz ishlovchi valyuta bozori), ham texnologik jihatdan (axborot texnologiyalari va tarmoqlarining yaxlitligi) globallashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

**Zamonaviy valyuta tizimining globallashtiruvining o`ziga xos jihatlari
quyidagilardan iborat:**

- valyuta kurslari va foiz stavkalarining kutilmaganda va keskin o`zgarishi bilan tavsiflanadigan bozor mexanizmi;

- bir tomondan, oldindan kutilmagan voqealarga (neft falajlari yoki Germaniyaning birlashuvi kabi) tezda moslashishga zarurat, boshqa tomondan, mamlakatlar hukumatlarining inflyatsion siyosat yuritishi va davlat qarzdorligi o`shishi siyosatidan kafolatlovchi ma`lum xalqaro tartibga solish instrumentlarini yaratish.

Jahon valyuta tizimining eng asosiy xususiyati shundaki, u har doim o`zgarib, rivojlanib turadi. Bu o`zgarishlarning eng umumiy sabablari - jahon xo`jaligini rivojlantirishdagi xalqaro hamkorlikning kuchayishi, tovar ishlab

chiqarish va bozorlarning baynalminallashuvidir. Bugungi kunda uni tartibga solish mexanizmlarining doimiy o`zgarishi va valyuta tizimining barqarorligi, valyuta tizimining evolyutsiyasi bilan qanchalik mos tushishiga bog`liq.

Xalqaro valyuta tizimlarining ma`lum shakllari, ishlab chiqarishning rivojlanishi, xalqaro aloqalar, milliy pul tizimlari, jahon maydonidagi kuchlar nisbatiga, yetakchi mamlakatlarning manfaatlariga qarab belgilanmoqda.

Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Parij jahon valyuta tizimi (1867-1914y.) Pulning xalqaro almashuvi, xuddi pulning o`zi singari qadimiy bo`lsada, hozirgi shaklda valyuta bitimlarining paydo bo`lishi XIX asr oxiriga borib taqaladi. Birinchi jahon valyuta tizimi - 1865 yilda to`rtta G`arbiy Yevropa mamlakatlari tomonidan tashkil etilgan va «Oltin andozasi» asosida faoliyat yuritgan - Lotin tanga ittifoqi hisoblanadi. Mazkur valyuta tizimi, rasmiy ravishda 1867 yilda Parij konferentsiyasida tan olindi va dunyoning 30 dan ortiq mamlakati tomonidan maxsus xalqaro shartnomaga imzo chekildi. Bu valyuta tizimi «Oltin andozasi»ga ya`ni, oltinni etalon (mezon) metall sifatida qabul qilishga asoslangan milliy pul tizimlarini birlashtirdi. Shuning uchun ham Parij valyuta tizimi «Oltin tanga andozasi» deb yuritila boshlandi. Bunga muvofiq, jahon puli oltin tangalar va oltinga konvertirlanadigan pullardan tashkil topgan edi.

Oltin andoza tartibi bosqichma-bosqich uch shaklni boshdan kechirdi. 1914 yilgacha oltin tanga bosqichi, 1922 yildan 1929 yilgacha oltin qo`yilma andozasini, 1944 yildan 1971 yilgacha oltin deviz andozasi. Oltin tanga andozasi davrida zarbxonalar oltin qo`yilmalardan oltin tangalar ishlab chiqarish huquqiga ega edilar. Bu erkin tarzda va deyarli tekin amalga oshirilgan, shuning uchun ham, bu tangalar pul massasining asosini tashkil qilgan. Qog`oz pullar xuddi oltin tangalar qatori muomalada bo`lgan va ular oltinga to`la konvertirlangan. Oltin bilan konvertirlanganlik doimo ta`minlanishi uchun, qog`oz pullar emissiyasi chegaralangan. Yangi tizimning dunyo bo`ylab keng tarqalishi bilan, unga bo`lgan ishonch ortdi. Bu amalda, xalqaro hisob-kitoblarda to`lov vositasida oltin

va boshqa shu kabi qimmatbaho metallarni olish yoki berish o`rniga, xorijiy schetni debitlash yoki kreditlash orqali to`lovni amalga oshirishga olib keldi. Valyuta dilerlari qo`lida telegraf, telefon, teletayp kabi vositalarning paydo bo`lishi, xalqaro valyuta savdosini professional darajada yuritishga imkoniyat berdi.

Parij valyuta tizimi birinchi jahon urushigacha amalda bo`ldi. Uning asosiy xususiyati, paritetlari oltinga nisbatan o`rnatiladigan, belgilangan valyuta stavkalarida edi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan bo`lib, «**valyutaning oltin pariteti**» yoki «**valyutaning oltin tarkibi**» deb nom oldi. Oltin tanga andozasi davrida, oltin hisobiga ikkiyoqlama funktsiya amalga oshirilgan. Mazkur funktsiyalar: xalqaro hisob-kitoblarda tan olingan to`lov vositasi sifatida hamda bir vaqtning o`zida, ichki bozorda yagona qabul qilingan almashuv va to`lov vositasi edi.

Oltin ushbu funktsiyalarni ta`minlashi uchun, quyidagi shartlar bajarilishi shart bo`lgan:

1) Markaziy bank oltinni, belgilangan kurs bo`yicha, chegaralangan miqdorda sotishni va sotib olishni kafolatlashi.

2) Oltin egasiga, davlat zarbxonasida tayyorlangan oltinni tanga va quyma shaklida har qanday miqdorda saqlashi. Oltin zahiralarni saqlash jarayoni esa, tezavratsiya degan nom olgan.

3) Oltinning import va eksporti chegaralanmaganligi.

Ushbu shartlarning bajarilishi, tangani metall qiymati va nominali har doim bir xilda bo`lishi ta`minlangan. O`z-o`zidan, oltin tanga andozasi sharoitida, likvidlilik - sanoat maqsadlari uchun zarur bo`lgan oltinni ishlab chiqarish tezligi va oltinning miqdori bilan aniqlangan.

Barcha valyutalar va oltin o`rtasidagi yaqin bog`liqlik, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda, ma`lum ta`sirini o`tkazdi.

Oltin andozasining avtomatik faoliyati deb ataladigan jarayon quyidagicha amalga oshdi: to`lov balansida taqchillik mavjud mamlakat, ma`lum miqdordagi oltinni chet elga olib chiqishi shart bo`lgan. Bu muomaladagi pul massasini

kamaytirib, deflyatsiyaga olib kelgan (**deflyatsiya** -muomaladagi pul massasi o`shishini chegaralash jarayoni, inflyatsiyaning teskarisi). Va aksincha, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oltinning olib kelinishi, ikkinchisida inflyatsiyani keltirib chiqargan. Shu yo`l bilan hosil qilingan narxlar o`rtasidagi farq, oltin olib chiqilgan mamlakat uchun foydali hisoblangan. Eksportni kengaytirish, importni qisqartirish orqali, bunday mamlakat to`lov balansini yaxshilagan.

Shuningdek, tartibga solish jarayonida pul (oltin) taqchil bo`lgan mamlakatda hisob stavkalarini oshirish va aksincha, pul (oltin) ortiqcha bo`lgan mamlakatda hisob stavkasini tushirish qo`llanilgan. Yuqoridagilar natijasida yuzaga keladigan kapital ko`chishi, ikki mamlakat o`rtasidagi to`lov holati balanslanishiga yordam bergan.

Oltin andozasi shartida, birja almashuv kurslari juda tor chegarada +1%ga tebranishi mumkin edi. Bu holat yuqori va quyi «**oltin nuqtalari**», deb nom oldi. Rasmiy paritetdan bunday og`ishishni, oltin oldi-sotdisi paytida fraxt va sug`urta bilan bog`liq xarajatlarning kelib chiqishi, tashiladigan oltin qiymatining +1%ini tashkil etganligi bilan tushuntirish mumkin. Agar, ma`lum valyutaning almashuv kursi, o`z paritetidan yuqori bo`lsa, xorijiy valyutani sotib olishdan, oltinni tashib keltirish arzon hisoblangan. Debitor o`z pulini oltinga almashtirib, qarz to`lagan. Boshqa tomondan, agar valyuta kursi tushsa, kreditor qarzni oltin bilan to`lanishini talab qilgan. Bu tizimda valyuta munosabatlari davlatning aralashuvidan xolis tarzda amalga oshirilganligidan hamda almashuv kursining tebranishi sezilarsiz bo`lganligidan, valyuta riski past edi. Mazkur tizim 1914 yilgacha amalda bo`ldi. Birinchi Jahon urushi yillarida yuzaga chiqqan iqtisodiyot uchun yirik hajmdagi zaruriy mablag`lar, faqatgina qo`shimcha pul chiqarish yo`li bilan qondirilishi mumkin edi. Ichki bozorga salbiy ta`sirini inobatga olib, ko`pgina mamlakatlar oltin andozasiga asoslangan qoidalarni bekor qiluvchi chora-tadbirlarni qo`lladilar. Bu esa, Parij Jahon valyuta tizimini amalda parokandalikka olib keldi.

Genuya jahon valyuta tizimi (1922-1929y). Ikkinchi jahon valyuta tizimi 1922 yilda o`tkazilgan xalqaro Genuya konferentsiyasi qarorining natijasi edi. Bu tizim - oltin andozasiga taalluqli bo`lib, uning yangi ko`rinishi «oltin qo`yilma andozasi» hisoblanadi. Oltin qo`yilma andozasi amal qilgan sharoitda, muomaladagi pullar yoki qisman, yoki to`liq qog`oz pullar edi. Huquqiy jihatdan, mazkur qog`oz pullarni hohlagan paytda emission bankdan oltinga almashtirish mumkin bo`lgan. Amalda esa, ushbu pullarning ma`lum qismini shu yo`l bilan almashtirish mumkin bo`lgan. Emission bank, albatta, pulni to`liq ta`minlash uchun zarur bo`lgan oltinni saqlashi shart emas edi. Belgilangan ta`minot (oltin) qanchalik oz bo`lsa, davlatning qo`shimcha qog`oz pullarni chiqarish imkoniyati shunchalik ko`p bo`lgan. Shu sababli, muomaladagi qog`oz pul miqdori saqlanadigan metall pul miqdoridan yuqori bo`lgan. **Oltinga almashinadigan valyutalar sifatida dollar, frantsuz franki va funt sterling tanlandi.**

Genuya valyuta tizimi atigi 1929 yilgacha amalda bo`ldi. Ushbu tizimning parokandalikka uchrashiga asosiy sabab, urushdan keyingi inflyatsiya ta`sirida valyuta pariteti norealligining o`sib borishi bo`ldi. Aksariyat mamlakatlarda inflyatsiya sur`atlarining turli darajada bo`lishi, xalqaro narxlarga bog`liqlikda nomutanosiblikning kuchayishiga olib keldi. Masalan, 1925 yilda funt sterling dollarga nisbatan 44 foizdan past bo`lmagan baholanishga ega bo`lgan. Ko`pgina mamlakatlarda, iqtisodiyotning ichki va tashqi sohalarida dollar orqali muvofiqlashtirish sezilarli darajadagi inflyatsiyani keltirib chiqardi. Bitta valyutaning almashinuv kursining pasayishi, boshqalarining ham qayta baholanishiga olib keldi. Oldingi paritetni tiklash maqsadida, almashuv kursi ko`tarilgan mamlakatlarda ham inflyatsiya yuz berdi. Natijada, yuzaga kelgan devalvatsiya barcha asosiy valyutalarga ta`sir etdi.

Ikki jahon urushi oralig`ida xalqaro pul tizimi barqarorligini buzilishiga sabab bo`lgan omillar, faqatgina inflyatsiya va devalvatsiya emas edi. 1931 yildan boshlab, butun jahon iqtisodiyotini falaj ahvolga solib qo`ygan inqiroz tufayli, valyuta nazorati joriy qilindi. Asosiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog`liq,

joriy to'lovlarni amalga oshirishga yetarli xorijiy valyuta zahirasi ta'minlash, nazorat qilishning asosiy vazifasi edi.

Buning uchun, hukumatlar xorijiy valyutaning importi va eksporti ustidan nazoratni amalga oshirishlariga to'g'ri keldi. Haqiqatda, tizim uchta valyuta blokiga ajraldi: dollar, funt streng va frank hududli. Bular Ikkinchi jahon urushigacha amal qildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, frank hududi, Afrikaning frantsuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarida evro muomalaga chiqqunga qadar faoliyat yuritdi.

Brettonvud jahon valyuta tizimi (1944-1972 yy.). 1943 yilga kelib, AQSH hamda Buyuk Britaniya erkin va barqaror valyuta tizimini barpo qilish uchun dastlabki qadamlarni qo'ydi. 1944 yilning iyul oyida Bretton-Vuds shaxrida bo'lib o'tgan konferentsiyada, AQSH oltin andozasiga asoslangan kontseptsiyaga o'tish tashabbusi bilan chiqdi. Shu vaqtning o'zida, yangi xalqaro valyutani tartibga solish tizimi faoliyatini nazorat qilish uchun, Xalqaro valyuta fondi (XVF)ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yangi tartibning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- barqaror almashuv kurslariga ega bo'lgan, xalqaro valyuta tizimini tashkil etish;
- qattiq valyuta nazorati bekor qilinishi va barcha valyutalarning konvertirlanishiga erishish.

Brettonvud tizimining asosiy tomonlari quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblarda oltin o'zining **oxirgi pul** funksiyasini saqlab qoldi;
- Amerika dollari zahira valyuta sifatida qabul qilindi. U oltinga tenglashtirilib, boshqa mamlakatlarning valyuta qiymatini o'lchash hamda xalqaro kredit to'lovi vositasi sifatida qabul qilindi;
- boshqa mamlakatlarning Markaziy banklari va hukumatlari dollarni, AQSH xazinachiligidan 1 troya untsiyasi (31,1 g.) uchun 35 doll, kurs bo'yicha almashishi mumkin edi. Bundan tashqari, hukumat organlari va

xususiy shaxslar oltinni xususiy bozorlardan xarid qilishlari mumkin edi. Oltinning valyuta bahosi rasmiy kurs asosida belgilanib, u 1968 yilgacha sezilarli darajada tebranmagan;

- valyutalarning bir-biriga tenglashtirilishi va ularni o`zaro almashtirish, oltin va dollarda ifodalanadigan rasmiy valyuta paritetlarida amalga oshirilgan;

- barcha mamlakatlar har qanday olingan boshqa mamlakat valyutasiga nisbatan, o`z valyuta kursi barqarorligini saqlashi shart edi. Valyutaning bozor kursi, oltin yoki dollarda belgilangan paritetdan 1 foizdan ortiq u yoki bu tomonga og`ishi mumkin emas

edi. Paritetlarning o`zgarishi, to`lov balansidagi buzilishlar barqaror tus olsagina,

mumkin hisoblanardi. Dollardan foydalanish ko`lamining ommaviy tus olishi bilan,

oltindan foydalanish hajmi keskin pasaydi;

- valyuta munosabatlarini davlatlararo tartibga solish, asosan, XVF tomonidan amalga oshiriladigan bo`ldi.

O`tgan asrning 60-yillariga kelib Brettonvud tizimi, o`sib kelayotgan jahon xo`jaligining baynalmilallashuvi, TMKlarning valyuta sohasidagi chayqovchiligining boshlanishiga qarshilik qilardi.

Oltin tartibidagi dollar andozasi tizimi, amalda asta-sekin dollar andozasi tizimiga aylanib bordi. O`tgan asrning 60-yillariga kelib, AQSH iqtisodiyotidagi orqaga siljish, va asosan, G`arbiy Yevropa va Yaponiya iqtisodiy qudratining o`sishi natijasida dollarning qadri sezilarli darajada tushdi. AQSHdan tashqarida bo`lgan dollar zahiralari yirik evrodollar bozorini tashkil qildi. To`lov balansidagi yirik taqchilik, 1 untsiya uchun dollar narxini 35 dollarga oshishiga olib keldi.

Valyuta tizimining larzaga kelishiga, shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha iqtisodiy o`sish yuz berganligi ham o`z ta`sirini o`tkazdi. 1961 yil martida yuzaga kelgan sezilarli darajadagi ijobiy to`lov balansi natijasida, nemis markasi va golland guldenining revalvatsiyasi yuz berdi.

Bir paytning o`zida, 1963 yildan boshlab, funt sterling qattiq bosim ostida qoldi.

Ko`rsatilgan barcha yordamlarga qaramasdan, uch yillik inqiroz davrida, 1967 yilga kelib, funt sterling pariteti 2,80 dan 2,40 dollargacha devalvatsiya qilindi. Buning natijasida oltinga bo`lgan talab ortdi. Bularning barchasi oltinning kamayishiga olib keldi. Markaziy banklarni 1968 yilda oltin puli (ingl.)dan voz kechishga va oltin bozorining amerika sektoriga jamlanishiga olib keldi.

1960 yillarga kelib, AQSH to`lov balansidagi taqchillik, oltin zahirasini 18 mlrd. dollarga, 1970 yillarda esa, 11 mlrd. dollarga kamaytirdi. Bir vaqtning o`zida, AQSHga nisbatan xorijiy kreditorlarning talabi ancha o`sib, 1970 yilda u AQSH ixtiyoridagi oltin zahiralaridan ikki marotaba ko`p edi. 1971 yilning iyuniga kelib AQSH dollari oltinga rasmiy bahoda almashtirishdan bir tomonlama bosh tortdi. Bu Brettonvud tizimining amalda bekor bo`lishini bildirardi.

Yamayka jahon valyuta tizimi (1976y.-hozirgi paytgacha). 1976 yili Kingstonda (Yamayka) bo`lib o`tgan XVFnning navbatdagi yig`ilishida yangi valyuta tizimiga asos solindi. Yamayka bitimining yo`riqlari asosida, xalqaro valyuta mexanizmini tashkil etish tamoyillarini quyidagicha keltirish mumkin:

- oltinning qiymatni o`lchash sifatida va valyuta kurslarini hisoblash vositasi sifatidagi tangar funktsiyasi bekor qilindi.

- Oltin erkin narx belgilanadigan oddiy tovarga aylandi. Bir vaqtning o`zida u, yuqori likvidli aktiv sifatida maxsus tovar bo`lib qolaveradi. Kerak bo`lib qolganda, oltin sotiladi va undan olingan valyuta tushumidan to`lov uchun foydalaniladi.

Muomalaga SDR andozasi (Special drawing rights - SDR) - «maxsus qarzdorlik huquqi» **kiritildi**. Bundan ko`zlangan maqsad, ushbu valyutalarni asosiy zahira avuari qilib, boshqa zahira valyutalarni, birinchi navbatda, AQSH dollari rolini pasaytirish edi.

Mamlakatlarga valyuta kursi tartibini tanlash huquqi berildi. Mamlakatlar o`rtasida amaldagi valyuta munosabatlari, ular milliy pul birliklarining suzib

yuruvchi kursiga asoslana boshladi. Kurslarning tebranishiga, asosan, ikkita omil ta`sir ko`rsatar edi:

a) valyutaning mamlakat ichki bozoridagi xarid quvvati, real qiymat nisbatlari;

b) xalqaro bozorlarda, milliy pulga bo`lgan talab va taklif.

O`tgan asrning 90-yillariga kelib, suzib yuruvchi kurs omillarini tadbiq etish natijasida, xalqaro valyuta tizimini tashkil etishning quyidagi elementlariga asoslangan murakkab chizmasi paydo bo`ldi;

1) munosabatlarni saqlash kerak bo`lgan alohida milliy valyutalar, asosiy tayanch birliklar sifatida tanlanadi, aniqrogi, o`z valyuta kursini boshqa valyutaga bog`lash;

2) valyuta kurslarining tebranish darajasi bir xil emas, shuningdek, tebranish oralig`i keng.

Bunda, valyuta kursi, ayrim valyutalarga nisbatan ma`lum oraliqda ushlab turiladi, boshqa valyutalarga nisbatan esa, erkin almashiladi. Boshqacha so`z bilan aytganda, milliy valyuta pariteti, asosan, SDRga nisbatan ushlab turiladi. Amalda mamlaqatlarning valyuta tartibini e`lon qilishlari turlichadir.

1988 yilda 58 mamlakat o`z valyuta kursini, bitta asosiy hamkor mamlakat valyutasiga nisbatan o`rnatishi haqida qaror qabul qilindi: amerika dollariga (39 mamlakat), frantsuz frankiga (14 frank hududi mamlakatlari) va boshqa valyutalarga (5 ta mamlakat).

Yamayka bitimiga asosan, jamoa zahira valyuta birligi sifatida SDR tan olindi.

SDRning qiymati dastlab, oltinga ko`ra belgilangan ($SDR=0,888671$ sof oltin) bo`lsa, 1974 yil 1 iyundan boshlab, SDR kursi «valyuta savati»ga nisbatan aniqlana boshlandi.

SDR bo`yicha depozitlar foiz keltiradi. Agar XVFda SDRdagi avuarlar assignovaniyadan ortiqcha bo`lsa, mamlakat foiz oladi, aksincha, SDRdagi avuarlar assignovaniyadan kam bo`lsa, foiz to`laydi. U, a`zo mamlakatlarga XVFda ajratilgan kvotalar asosida XVFdagi maxsus hisobvaraqlarda olib boriladi.

Ushbu kvotalar, to'lov balansidagi taqchilikni moliyalashtirish uchun, zaruriy valyutani sotib olishga ishlatiladi. Ammo, SDRning xalqaro hisob-kitoblardagi ulushi 6 foizga yaqin. Ko'pchilik iqtisodchilarning fikricha, SDRga zahira valyutasi sifatida emas, balki ko'proq darajada kredit sifatida qarash kerak. Lekin, SDR ham zahira, ham kredit valyutasi hisoblanadi.

Shunday qilib, jahon valyuta tizimining uchta ko'rinishi amal qilgan va oldinma keyin bir-birini o'rnini almashtirgan. **Ulardan birinchisi** - «oltin tanga andozasi» tizimi - qonuniy jihatdan asosiy pul shakli rolini bajaruvchi oltinga asoslangan. Milliy birliklarning kursi oltinga qattiq bog'langan bo'lib, valyutalar bir-biriga oltin bilan ta'minlanganligi orqali, qattiq kurs bo'yicha taqqoslangan. Valyuta kurslarining e'lon qilingan nisbatlardan og'ishi + 1% dan ortmagan va «oltin nuqtalar» chegarasida bo'lgan.

Ikkinchi tizim - bu «oltin deviz andozasi» (Brettonvud valyuta tizimi) bo'lib, u AQSH dollariga nisbatan valyutaning qattiq kursini o'rnatish (og'ishishlar chegarasi + 1% oraliqda) orqali amal qilgan. AQSH dollarining kursi oltinga nisbatan qattiq o'rnatilib, dollar shu kurs bo'yicha oltinga konvertirlangan. Tizimning o'zi esa, «oltin deviz andozasi» degan nom oldi. Genuya tizimini, oltin tanga va oltin deviz andozalari o'rtasidagi oraliq tizim deyish mumkin.

Uchinchi jahon valyuta tizimi - Yamayka valyuta tizimi, suzib yuruvchi, almashuv kurslariga asoslangan bo'lib, «ko'p valyutali andoza», yoki boshqacha - SDR andozasi deb nomlanadi. Mamlakat belgilangan, suzib yuruvchi yoki aralash valyuta kurslarini tanlashi mumkin. Bu, shuningdek, valyuta inqirozlarini keltirib chiqarish xususiyatiga ham ega.

Jahon valyuta tizimlarining rivojlanish bosqichlarini quyidagi 2-jadval va 1-chizmalar orqali ko'rish mumkin. **3. YEVROPA VALYUTA TIZIMI**

Yevropa valyuta tizimi - bu jahon (hududiy) valyuta tizimi bo'lib, u iqtisodiy integratsiya doirasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlarning umumiy yig'indisi; «umumiy bozor» mamlakatlari integratsiya jarayonlarini rag'batlantirish va valyuta kurslarini barqarorlashtirish maqsadida valyuta

munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shaklidir.

Yevropa valyuta tizimi - jahon valyuta tizimining (Yamayka) quyi shaklidir. G`arbiy Yevropa integratsiya majmuining o`ziga xos jihatlari, uning Yamayka valyuta tizimidan farqlanuvchi quyidagi tarkibiy tamoyillari bilan tavsiflangan edi:

- Yevropa valyuta tizimi, evropa valyuta birligi - EKYuga asoslanadi;
- Oltinning amaldagi zahira aktivlar sifatida ishlatilishi;
- Valyuta kurslarining tartibi belgilangan, o`zaro tebranishlar doirasidagi valyutalarning «evropa valyuta iloni» shaklidagi suzishiga asoslanishi;

- Yevropa valyuta tizimida valyutaning davlatlararo hududiy tartibga solinishi, markaziy banklarga valyuta intervensiyasi bilan bog`liq bo`lgan to`lov balanslarining vaqtinchalik taqchilligini qoplashga kreditlar ajratish yo`li bilan amalga oshiriladi.

EKYu bilan SDRning taqqoslama tavsifi, ularning umumiy va farqli jihatlari ochib beradi. Umumiylik ularning: xalqaro hisob-kitoblarda jahon kredit pullar sifatidagi ko`rinishida; banknotlarda emas, balki naqd pulsiz shaklda amal qilishida; ular shartli qiymatini aniqlashda valyuta savati usulidan foydalanishda; schetlarda chegaradan ortiq saqlagani uchun emitentni mamlakatlarga foiz to`lashi zarurligi kabilarda namoyon bo`ladi. EKYu va SDRning farqli jihati sifatida quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

1. EKYuning emissiyasi, SDRnikidan farqli ravishda, Yevropa valyuta ittifoqiga a`zo mamlakatlar oltin va dollardagi rasmiy zahiralarning 20 foizini birlashtirish orqali ta`minlangan edi;

2. EKYuni emissiyasi SDRnikiga qaraganda egiluvchan edi. EKYuni chiqarish summasi oldindan rasmiy belgilan-magan edi va u Yevropa valyuta ittifoqiga a`zo mamlakatlar oltin-dollar zahiralarning o`zgarishiga qarab tartibga solingan; EKYuni emissiya hajmi SDRnikidan ancha yuqori edi;

3. Valyuta savati nafaqat EKYuning kursini aniqlashga xizmat qilgan, balki u birorta xam xalqaro valyuta birligi bajarmagan hisob-kitoblarda valyutaning

paritet

setkasi

vazifasini bajargan;

4. EKYuning kurs tartibi, o`zaro tebranishlar doirasida («evropa valyuta iloni») birgalikda suzishga asoslangan edi. Bu EKYu va boshqa evropa valyutalarning barqarorligini ta`minlardi;

5. SDRdan farqli ravishda, EKYu nafaqat rasmiy, balki xususiy sektorda ham qo`llanilgan. EKYu faoliyat doirasining kengayishiga quyidagi sabablar bor edi:

- EKYu valyuta savati va «evropa valyuta iloni», valyuta riskini pasaytirardi;
- xar qanday bank EKYuni valyuta savatiga mos ravishda «nazorat kila olardi». Bank o`z mijosi bilan kelishgan holda valyuta savatiga valyuta kushishi yoki undan olishi mumkin edi;
- EKYU barqaror valyuta sifatida, mukobil jahon valyutasi hisoblangan nobarqaror dollardan ko`ra ko`proq jahon xo`jaligining ehtiyojlarini qondira olardi.

Bir-necha yil davom etgan kizgin tortishuvlardan so`ng, 1987 yilda valyuta integratsiyasining rivojlanishida muhim rol uynagan, Yagona evropa akti imzolandi. 1991 yil «Delor rejasi» asosida, valyuta-iqtisodiy ittifoqni bosqichma-bosqich shakllantirishni ko`zda to`tuvchi, Yevropa ittifoqi to`g`risidagi Maastrixt shartnomasi ishlab chiqildi. 1992 yilning fevralida Maastrixtda (Niderlandiya) 12 ta mamlakat tomonidan Yevropa ittifoqi shartnomasi ro`yxatdan o`tkazildi va 1993 yilning 1 noyabridan ishga tushdi. Keyinchalik EIga Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya kushildi.

Maastrixt shartnomasiga asosan, iqtisodiy va valyuta ittifoqi uchta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (1990 yil 1 iyul - 1993 yil 31 dekabr) - EI iqtisodiy va valyuta ittifoqining tashkil topishi. EIni tashkil etish bo`yicha barcha tayyorgarlik

ishlari ishlab chiqildi. Shuningdek, bu davrda EI ichida va EI bilan boshqa uchinchi mamlakatlar o`rtasida kapitalning harakatlanishi bo`yicha barcha to`siqlar olib tashlandi. EIga a`zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish ko`rsatkichlarini yaqinlashtirish bo`yicha, shuningdek, inflyatsiyaga qarshi va davlat byudjeti siyosatini muvofiqlashtirish bo`yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqich (1994 yil 1 yanvar - 1998 yil 31 dekabr) a`zo-mamlakatlarni evroni qabul qilish bo`yicha harakatlari yanada aniqlashtirildi. Ushbu bosqichda, Yevropa Markaziy bankining(EMB) huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik holatini belgilash uchun Yevropa valyuta instituti tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur bosqichda:

- a`zo mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan davlat sektori korxonalariga yordam ko`rsatish hamda davlat qarzlari sotib olishni ta`qiqlovchi qonunlar qabul qilindi; Xuddi shu ta`qiqlar EVI tashkil etilishining uchinchi bosqichiga kelib, EMBga tegishli bo`ldi;

- davlat sektori korxonalarining moliya institutlarini mablag`laridan foydalanishdagi imtiyozlari bekor qilindi;

- a`zo mamlakat davlat sektorining majburiyat-larini boshqa mamlakat yoki EI tomonidan olinishi ta`qiqlandi; Bu tadbir «kafolatlashdan bosh tortish to`g`risidagi kelishuv» degan nom oldi;

- ishtirokchi-mamlakat davlat byudjetidagi taqchillikning me`yorida (davlat byudjeti taqchilligi YAIMga nisbatan 3 foiz, davlat qarzlari YAIMga nisbatan 60 foizdan) oshirmasligi talabi qo`yildi;

- zarur bo`lganda, markaziy banklarga xuddi EMB kabi maqom va mustaqillik berish qabul qilindi.

1998 yil 2 mayda Yevropa Ittifoqi EVIning uchinchi bosqichida qaysi mamlakatlarga evroga utishga ruxsat berish haqidagi qarorni qabul qildi.

Uchinchi bosqichda (1999-2002yy.)1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, evro hududiga kiruvchi ishtirokchi mamlakatlarning milliy valyutalari evro kursiga

nisbatan belgilandi, evro ularning umumiy valyutasi bo`ldi. U EKYuni ham 1:1 nisbatda almashtirdi. Ishtirokchi-mamlakatlar uchun yagona pul-kredit siyosatini yurituvchi EMB o`z faoliyatini boshladi.

Yagona pul-kredit siyosatining instrumentlari orqali, tijorat banklari va yirik kompaniyalarni evroda operatsiyalarni amalga oshirishi rag`batlantirildi.

1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, hisob-kitoblar uchun, evro hududiga kiruvchi mamlakatlarning milliy valyutalarini evroga nisbatan qattiq kursi belgilandi:

Valyuta	1 evroga teng bo`lgan milliy
Belgiya franki	40,3399
Nemis markasi	1,95583
Ispan pesetasi	166,386
Frantsuz franki	6,55957
Irlandiya funti	0,787564
Italiya lirasi	1936,27
Lyuksemburg franki	40,3399
Gollandiya guldeni	2,20371
Avstriya shillingi	13,7603
Portugaliya iskudosi	200,482
Finlandiya markasi	5,94573

1999-2002 yillarda o`zaro naqd pulsiz hisob-kitoblarda evro va unga bog`langan milliy valyutalardan foydalanildi, hududning barcha davlat hamda xususiy sektor aktiv va passivlari evroda nominatsiya qilina boshladi. Evro ittifoqni yagona pul-kredit va valyuta siyosati yuritila boshlandi hamda EIning umummilliy bank institutlarining faoliyati boshlandi.

2002 yilning 1 yanvarida muomalaga evro banknoti va tangalari chiqarildi, u milliy pul birliklari bilan parallel ravishda faoliyat yuritdi va milliy pullarni evroga almashtirish amalga oshirila boshlandi.

2002 yilning 1 iyulidan milliy valyutalar muomaladan chiqarilib, ishtirokchi mamlaqatlarning xo`jalik aylanmasi butunlay evroga utdi. Lekin, evro hududiga Buyuk Britaniya, Shveysariya va Daniya mamlakatlari kirishni hohlamadilar.

EIning yagona valyuta va kredit bozorida qator moliya operatsiyalarining davlat tomonidan tartibga solinishini birxillashtirish va erkinlashtirish kutilmoqda, xususan:

- sug`urta va pensiya fondlari endilikda, evro hududida investitsiya faoliyati bilan shug`ullanishda bir xil huquqqa ega bo`ladilar. Bu ularni majburiy tarzda davlat qimmatbaho qog`ozlarini sotib olishga bo`lgan amaldagi tartibdan kutulib, o`z

portfellarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi;

- davlat qimmatbaho qog'ozlarini joylashtirish bo'yicha birlamchi dilerlar, chegaralangan milliy ustunligini yo'qotadilar;
- ayrim mamlakatlarda, hozirgi kunda maxsus ruxsat talab etiladigan va kuchmas mulk garovi evaziga beriladigan kreditlar, evro hududida erkin va tez ko'chib o'tuvchi tus oladi;
- hozirgi kunda, milliy pul-kredit siyosatining manfaatlarini ko'zlab, o'z hududida hamkor-mamlakat banklari faoliyatini nazorat qilish amaliyoti bekor bo'ladi;
- EIda soliq tizimlarining integratsiyasi jadallashadi.

Umuman, mutaxassislarining fikricha, evroning muomalaga kiritilishi bilan xalqaro iqtisodiy, jumladan, moliya munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar amalga oshishi bashorat qilinmoqda. Evro hududida pul va kapital bozorida taklihihing kengayishi kutilmoqda, chunki evro hududi mamlakatlari valyuta zahiralarini oldingi hajmda saqlashga ehtiyoj bo'lmaganligidan, valyuta zahiralarini hajmini qisqartirish amalga oshirilmoqda. Bu holat, mazkur bozorlarni yanada erkin va dinamik bo'lishiga olib keladi, unda asosiy hal qiluvchilik roli davlatdan, xususiylar qarz beruvchilarga o'tadi. Investitsiyalarning asosiy oqimi esa, davlat majburiyatlariga emas, balki korxonalar qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishga yo'naltiriladi. Bu, fond bozori bilan ishlab chiqarishni bog'lab, kapital aylanmasini tezlashtiradi.

Evroni kiritilishi banklar uchun EIda yagona bank xizmati bozorini, shuningdek, yagona davlat va korporativ qimmatbaho qog'ozlar bozorini vujudga kelishini bildiradi.

Sanoat korxonalarini uchun, evroning kiritilishi, undan baho va to'lov vositasi sifatida foydalanish, shuningdek, hisob-kitoblar hamda valyuta riskini sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar pasayishini bildiradi. Bu ayniqsa, moliya korxonalarini sog'lomlash-tirishda muhim rol o'ynaydi. Ular aktsiyalarining daromadligi oshadi va nisbatan yaxshi rivojlanmagan Janubiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotini Shimoliy davlatlar darajasiga tenglashishini tezlashtiradi.

Jahon moliya markazlari masalasida esa, agar Buyuk Britaniya evro hududiga kushilmasa, unda yetakchilik mavqei Londondan Frankfurt-Mayn va Parijga o'tishi kutilmoqda. Elining valyuta va iqtisodiy birlashuvi, kelgusida jahon xo'jaligida kuchlar nisbatini «yangi Yevropa» foydasiga qarab o'zgarishiga hamda AQSH va Yaponiyaning jahondagi mavqeining kuchsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro valyuta munosabatlarida oltinning ahamiyati

Tarixan jahon puli funksiyasini oltin va kumush bajarib kelgan bo'lsada, Parij valyuta tizimi (1867yil) doirasida faqatgina oltin jahon puli sifatida qabul qilingan. Biroq, demonetizatsiya natijasida oltinning ahamiyati bir muncha kamaydi. **Oltin demonetizatsiyasi** - bu oltinning pul funksiyalarini bajarishdan asta-sekin maxrum etish jarayonidir. Demonetizatsiya jarayoni, XIX asr oxirigacha bir necha yuz yil davom etgan kumush demonetizatsiyasi kabi uzoq muddatli jarayondir.

Oltin demonetizatsiyasi ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan izohlanadi:

- oltin pullar zamonoviy tovar ishlab chiqarish talablariga javob bermaydi;
- kredit munosabatlari rivojlanishi bilan, kredit pullar - banknota, veksel, cheklar asta-sekin oltinni avval ichki pul muomalasidan, keyin esa, xalqaro valyuta munosabatlaridan sikib chiqardi;

- oltin muomalasining davlat tomonidan tartibga solinishi - uning demonetizatsiyasini tezlashtiradi;

- sub'ektiv omillar sifatida AQSHning valyuta siyosatini ko'rsatish mumkin.

AQSH valyuta siyosatining strategiyasi dollarning xalqaro mavqeini mustahkamlash maqsadida, oltinni jahon valyuta tizimining asosi sifatida diskreditatsiya qilishga yo'naltirilgan edi. Birinchi Jahon urushidan so'ng, moliya markazi Yevropadan Amerikaga kuchdi va bu AQSH dollarining etaqchiligi kuchaytirdi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin, AQSH o'zining yirik valyuta-iqtisodiy potentsialiga tayanib, «dollar oltindan yaxshirok» shiori ostida, dollar

hukmronligi uchun kurashni boshlab yubordi. Oltin demonetizatsiyasini tezlashtirish yo`li bilan dollar etaqchiligini mustahkamlashga yo`naltirilgan AQSH taktikasi, aniq vaziyatga bog`liq ravishda o`zgarar edi. Urushdan keyingi vayrongarchilik sharoitida G`arbiy Yevropa va Yaponiyada oltinning ahamiyati oshdi va AQSH o`zining yirik oltin zahiralaridan (1949 yilda 24,6 mlrd. doll, yoki kapitalistik dunyo rasmiy oltin zahiralarining 75 foizi) tayanch sifatida foydalandi. Chet el Markaziy banklarida dollarning oltinga almashtirilishi yo`lga qo`yildi, bu esa, uning kursini barqarorlashishiga imkon berdi. AQSH ta`siri ostida, dollarning yetakchi mavqeini saqlab qolish maqsadida 35 yil davomida (1934-1971) rasmiy baholar masshtabida hamda valyuta pariteti uchun baza sifatida xizmat qilgan oltinning pasaytirilgan rasmiy bahosi (31,1035 grammga teng bo`lgan 1 untsiya oltin 35 dollarga teng) ushlab turildi. Davlat aralashuvi ta`sirida oltinning rasmiy bahosi va haqiqiy bahosi o`rtasida sezilarli farq hosil bo`ldi. XVFNizomida dollarning oltin tarkibini va uning zahira valyutasi sifatidagi mavqeini saqlab qolish maqsadida, a`zo davlatlarni oltin bilan hukumat operatsiyalarini faqat rasmiy bahoda amalga oshirishga majbur qilindi. Shu maqsadda, tarixda birinchi marta 1961-1968 yillarda oltin puli (ing. orqali oltinning bozor bahosini davlatlararo tartibga solish amalga oshirildi. O`tgan asrning 70-yillaridan AQSHning xalqaro mavqei nisbatan pasaydi. AQSH dollarining qadrsizlanishi, oltinning real zahira aktivi sifatidagi mavqei o`shishiga imkon berdi. Shunday bir sharoitda, XVFN AQSH ta`siri ostida AQSH dollarining rakibi-oltin demonetizatsiyasini tezlashtirish siyosatini kuchaytirdi.

Oltin demonetizatsiyasining ikki jihati farqlanadi: yuridik va haqiqiy. Yamayka valyuta islohoti natijasida demonetizatsiyaga yuridik yakun yasaldi. XVFNing o`zgartirilgan nizomida valyuta kursi va paritetini aniqlashda oltinga ixtiyoriy tayanish istisno qilingan, oltin pariteti va oltinning rasmiy bahosi bekor qilindi. Oltinning rasmiy bahosi bekor qilinishi munosabati bilan Markaziy banklarga oltin zahiralarining 31 avgust 1975 yil holatiga bo`lgan darajasini ikki yil davomida oshirish ta`qiqlab qo`yildi. Biroq, XVFNizomida oltin xalqaro zahira aktivi sifatida to`g`ridan to`g`ri rad qilinmagan. Haqiqatda, oltin

demonetizatsiyasi yakunlan-magan. Oltinning ahamiyati to`g`risidagi masala qonuniy aktlar va qat`iy qarorlar bilan emas, balki tovar ishlab chiqarish, jahon xo`jaligi va valyuta munosabatlarining real sharoitlari bilan echiladi.

Oltin demonetizatsiyasi jarayonining davomlilikigi va qarama qarshiligi, uning baholar darajasida xilma-xillikni vujudga keltiradi. Ayrim iqtisodchilar «demonetizatsiya yuz berayotgani yuk va oltin pulning klassik funktsiyalarini bajarishda davom etmoqda», deb hisoblashmoqda. Boshqalari esa, «oltin butunlay demone-tizatsiyalangan va faqatgina qimmatbaho xom-ashyo ko`rinishidagi tovar bo`lib kelmoqda», deb hisoblashadi. Yana boshqalari «oltin demonetizatsiyasi shiddatli davom etayapti, ammo tugallanmagan» deb hisoblashmoqda.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, valyuta muhitidagi oltinning ahamiyatidagi o`zgarishlarni ko`rib chikamiz:

Birinchi, kredit pullar oltinni ichki va xalqaro muomaladan sikib chiqardi. Oltinning to`g`ridan-to`g`ri tovarlarga ayirboshlanishi tuxtatildi, baholarni oltinda belgilash bekor qilindi. U tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy aloqalarida to`lov va muomala vositasi sifatida to`g`ridan-to`g`ri xizmat kila olmadi. Ammo, oltin iqtisodiy aylanmasdagi o`zining muhim ahamiyatini: favkulodda jahon pullari, xalqaro kreditlar ta`minoti, boylik manbai sifatida saqlab qolmoqda. Oltinning xalqaro valyuta munosabatlaridagi ishtiroki kredit pullar almashgan holda, uning haqiqiy ayirboshlanishi amalga oshiriladigan maxsus bozorlar - oltin bozorlarida yig`ilgan.

Ikkinchi, oltinning muomaladan chiqishi bilan, pulning xazina funktsiyasi yangi holatlar bilan tavsiflanadi. Xazinalar vaqtinchalik pul muomalasini tartibga soluvchi sifatida ishlatilmay qo`ydi. Chunki, oltin kredit pullar kabi, avtomatik tarzda, xazinadan muomalaga va aksincha harakatlana olmaydi. Lekin, bu o`zgarishlarga qaramasdan, oltinning bu funktsiyasi sunib kolmadi: muhim o`zgarishlarga qaramasdan, oltinning ichki va jahon bozori bilan aloqasi saqlanib qoldi. Xazina davlat (1998 yil iyul holatiga 33,8 ming t.) va alohida shaxslar (25,4 ming t., XVF bahosi bo`yicha), Markaziy banklar,

davlatning moliyaviy organlarida va xalqaro valyuta kredit tashkilotlarida jamlangan rasmiy oltin zahiralari, xalqaro aktivlar sifatida millatlararo ahamiyatga ega. Oltin demonetizatsiya-sini tezlashtirish siyosatiga qaramay, AQSHning oltin zahiralari eng ko'p miqdorda bo'lib (8,138 ming t.), rasmiy zahiralar bo'yicha keyingi uch o'rinda turuvchi mamlakatlar (Germaniya, Shveysariya va Frantsiya) zahiralari teng. Oltin zahiralarining hajmi mamlakatning valyuta-moliyaviy mavqeini ko'rsatadi va uning kreditga layokatligini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlari-dan biri bo'lib xizmat qiladi.

Etakchi davlatlar «unligi» oltinni (jahon oltin zahiralarining 85 foizini) asosiy saqlab turuvchilari bo'lib hisoblanadi. Oltin zahiralari notekis (AQSH- 8,138 ming t., FRG- 3 ming t., Shveysariya - 2,6 ming t., Frantsiya-2,5 ming t., Italiya - 2 ming t.) taqsimlangan. AQSHning rasmiy oltin zahiralariidagi hissasi 1950 yilda 75 foiz (20,3 ming t.)dan 1998 yilda 28 foiz (8,138 ming t.)ga tushdi, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, ayniqsa Elining hissasi esa 16 foizdan (4,8 ming t.) 52 foizga (15 ming t.) o'sdi. Yaponiya juda kam oltin zahiralari ega bo'lsada, 1948-1992 yillar davomida 3 t.dan 754 t.ga ko'paydi va shu darajada saqlanib kelmoqda (1998y.). Yaponiyada 1974 yilda oltin importi, 1978 yilda uning eksporti qonuniylashtirilgan, 1982 yilda esa, oltin bozori tashkil etilgan. Rasmiy oltin zahiralarining bir qismini xalqaro tashkilotlarda (XVF-3,2 ming t., Yevropa valyuta instituti (1998 yildan Yevropa Markaziy Banki) - 2,86 ming t.ga yaqin, Bazeldagi Xalqaro hisob- kitoblar banki - 0,21 ming t.) saqlash doimiy xolga aylanib qoldi. Jahon hamjamiyati rasmiy oltin zahiralarining 18 foiz(4,9 ming t.)ga yaqini 120 dan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 70-yillari o'rtalarida neft bahosining ko'tarilishi munosabati bilan, neft eksport qiluvchi davlatlar (OPEK) tashkiloti a'zolarining oltin zahiralari bir muncha o'sgan bo'lsada, ammo keyingi yillarda bu ko'rsatkichning sezilarli qisqarishi kuzatilmoqda. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar juda kam oltin zahiralari ega.

G'arb mamlakatlarida davlatlar va shaxsiy xazinalar hajmi (60 ming t. dan ortiq) yarim asrdan ko'proq vaqt davomida qazib chiqarilgan oltinga teng.

Bunday katta hajmda yig'ilgan birorta ham tovar yuk, shuning uchun, oltin zahiralari nisolarsiz ayirboshlash qiyin. Shuning bilan birga, zamonaviy tovar ishlab chiqarish oltin o'rniga xazina funksiyasini bajaruvchi o'rinbosar topa olmadi. Oltinning tabiiy xossalari - bir xillik, bulinuvchanlik, chidamlilik, uzoq saqlanuvchanlik - jahon pullariga qo'yiladigan talablarga ko'proq mos keladi.

Va nixoyat, oltinning jahon puli sifatidagi funksiyasida ham o'zgarishlar yuz berdi:

- oltin bilan bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblarni cheklash jarayoni, uning bu sohada to'g'ridan-to'g'ri ishlatilish zarurati yo'qolishiga olib keldi. Shunisi kizikki, oltin andozasi sharoitida ham, xalqaro hisob-kitoblarda kredit vositalari keng qo'llanilgan, oltin faqatgina to'lov balansining passiv qoldigini qoplash uchun xizmat qilgan;

- oltin jahon puli sifatida yuzaga chiqmoqda, shu bilan birga uning uch belgisini saqlab kelmoqda - umumiy sotib oluvchi bo'lib xizmat qilish, to'lov vositasi bo'lib xizmat qilish va umumxalq boyligining moddiylishuvi. Oltin hozir ham, jahon bozorlarida umumiy tovar bo'lib hisoblanadi. Oltin ega bo'lib, oltin bozorlarida zarur valyutani

sotib olsa bo'ladi, unga esa, istalgan tovarni sotib olish yoki uni to'lash orqali qarzni

uzish mumkin. Tanglik holatida favkulodda jahon puli sifatida oltinning ahamiyati

oshadi. Valyuta tangligining yuzaga kelishi, «oltin jazavasi» shaklida, barqaror bo'lmagan valyutadan oltin «kochish»ga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar

badallarini qaytarib olish tartibida XVFDan 46,5 tonna oltin olib, tashqi qarzlarni

qoplash uchun 201. oltinni sotib yuborishdi.

Oltinning yuridik demonetizatsiyasiga qaramay, u xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida muhim ahamiyatga ega:

Birinchidan, oltin zahiralarning ahamiyatini hisobga olgan holda, davlatlar iqtisodiy, siyosiy, harbiy qiyinchiliklar uchun oltin zahiralarni ma`lum bir darajada ushlab turishga intilmoqdalar. 1970-yillar o`rtasida, ko`pchilik mamlakatlar bozor darajasiga moslab davriy ravishda uning bahosini oshirib yubordi. Faqatgina, AQSH eng ko`p oltin zahiralarga ega bula turib, uni baholashda bekor qilingan baho (1 untsiya uchun 42,22 doll.)ni qo`lladi. Markaziy banklar 1973 yildan oltin zahiralarni deyarli o`zgarmas holda saqlab kelmoqda, ularning ayrimlari (Frantsiya, Shveysariya) davlat zahiralarni to`ldirish maqsadida kimoshdi savdolarida oltin xarid qilishdilar. O`tgan asrning 80-yillarida, ayrim OPEK mamlakatlari (Eron, Iroq, Liviya, Indoneziya) ham jahon bozorlaridan oltinni xarid qilishdilar.

Jahon oltin bozorlariga oltinni eng ko`p yetkazib beruvchi davlatlar qatorida Janubiy Afrika Respublikasini alohida ajratib ko`rsatish mumkin. Rasmiy ma`lumotlarga ko`ra, Janubiy Afrika Respublikasi hozirgi kundagi hajmda yana 25 yil mobaynida oltin yetkazib berib turishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi dunyodagi eng ko`p oltin qazib chiqaruvchi 10 mamlakatlardan biri hisoblanadi. Respublikaning yillik oltin qazib chiqarish quvvati 75 - 80 tonnani tashkil etadi. Xolbuki, bu ko`rsatkich Qozog`iston Respublikasida 35 - 40 tonnani, Armaniston Respublikasida esa atigi 2,5 - 3,0 tonnani tashkil etadi.

Yaponiya, Avstriya, Italiya kabi mamlakatlar oltinni jahon bozorlaridan sotib oluvchilar bo`lib ishtirok etadilar. Chunki, oltin inflyatsiyaga qarshi samarali jamgarish vositasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, o`zlarining oltin zahiralardan «svop» bitimlari uchun, to`lov balansi taqchilligini qoplash maqsadida xalqaro kreditlar (1970-yillar o`rtasida Italiya, Portugaliya, Urugvay, 1980-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar)ni ta`minlash va tashqi qarzlarni to`lash uchun ishlatadilar. Ba`zi hollarda, oltinning bir qismi valyuta zahiralarni to`ldirish uchun sotilmoqda (masalan, Angliya banki, XVF XX asrning so`ngi yillari va XXI asrlar bo`sag`asida).

EVIga a`zo mamlakatlarning 20 foiz oltin zahiralari EKYu emissiyasiga qisman ta`minot bo`lib xizmat qilgan. Oltin evro emissiyasini 1999 yildan amalga oshirayotgan EMBning aktivlari (10-15 foiz miqdori)da saqlanib qolgan.

Uchinchidan, demonetizatsiya siyosatiga qarshi oltinning Markaziy banklar, 1994 yildan Yevropa valyuta instituti, 1998 yildan EMB o`rtasida qisman ishlatilishi uchun Yevropa valyuta **ittifoqi** tashkil qilingan. Shu tarzda oltin zamonaviy sharoitlarda ham, metall valyutaning ma`lum sifatlarini, ya`ni favkulodda jahon pullari vazifasini saqlab kelmoqda.

Folkswagen Amerikada

TMKlar bozordagi mavqeini hamda daromadlarini oshirish maqsadlarida ko`plab strategiyalardan foydalanadi. 1970-yillar oxirida "Folkswagen"ni AQSHdagi ishlab chiqarish qudratini oshirishga qaratilgan investitsiyalari, TMKlarni xalqaro raqobat pozitsiyalari bo`yicha o`zgarishlarga moslashishiga yorqin misoldir. 1971 va 1973 yillardagi valyuta inqirozi va u bilan bog`liq devalvatsiya yuz bergunga kadar, Volkswagen AQSHga avtomobil yetkazib beruvchi eng yirik xorijiy ta`minotchi edi. 1969-1971 yillarda ushbu kompaniyaning AQSHga yillik eksportni 500000 avtomobilni tashkil etardi. "Folkswagen"ning bozordagi holati, uning kuchli eksport pozitsiyalari, dollar kursining hamda amerika ishlab chiqaruvchilarining yirik hajmdagi mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi asosida belgilanar edi. 1972-1975 yillarda "Folkswagen"ning bozordagi ulushini qisqarishi, kompaniyani korporativ strategiyasini qayta ko`rib chiqishga majbur qildi. 1975-1976 yillarda Germaniyada joylashgan kompaniya boshqaruvi, AQSHda ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish bo`yicha reja ishlab chiqdi. 1977 yilda boshlangan "Folkswagen" investitsiyalari quyidagi shartlarga asoslanardi:

1) "Folkswagen" Pensilvaniya shtati hukumati va mahalliy boshqaruv tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar uchun sezilarli rag`batlantirishlar oldi.

Ushbu sof subsidiyalar miqdori 111 mln. dollardan ortiq edi. Subsidiyalar

natijasida, "Folksvagen" investitsiyalari uchun oladigan ichki daromad stavkasi AQSHda 18 dan 23,5 foizga ortdi.

2) Ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulotni ko'pgina mamlakatlarga tarqatish yo'llari, "Folksvagen"ga sezilarli darajada mablag` va daromadlar keltiruvchi, turli moliyaviy va boshqa faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Mazkur faoliyat, o'tkinchi baholarni belgilash hamda foyda-soliq o'rtasidagi samarali nisbatni ham qamrab oladi. 1970 yil oxirlarida, o'tkinchi baholarni belgilashdan daromad keltiradigan, maxsus valyuta munosabatlari mavjud edi.

avtomobil qismlarini G'arbiy Germaniyada, Lotin Amerikasi hamda AQSHda ishlab chiqarardi. Pensilvaniya loyihasi foydani ushbu korxonalarining biridan-ikkinchisiga ko'chirish imkoniyatini berardi.

4) "Folksvagen"ni AQSHda investitsiyalarni amalga oshirishi sharoitida, o'tkinchi baholarni belgilash asosiy korxonalar va filiallar o'rtasidagi avtomobil kompaniyalariga xizmat ko'rsatish va savdoni ham qamrab olgandi. Shuningdek, uning tarkibiga qarzlarning asosiy summasini to'lash va G'arbiy Germaniyadagi asosiy kompaniyaga foizlarni to'lash, "Folksvagen Amerika" ning eski kapital uskunalarini sotish va amerika filialiga boshqarish uchun komissiyalar kirgan.

Ushbu sof subsidiyalar miqdori 111 mln. dollardan ortiq edi. Subsidiyalar natijasida, "Folksvagen" investitsiyalari uchun oladigan ichki daromad stavkasi AQSHda 18 dan 23,5 foizga ortdi.

2) Ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulotni ko'pgina mamlakatlarga tarqatish yo'llari, "Folksvagen"ga sezilarli darajada mablag` va daromadlar keltiruvchi, turli moliyaviy va boshqa faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Mazkur faoliyat, o'tkinchi baholarni belgilash hamda foyda-soliq o'rtasidagi samarali nisbatni ham qamrab oladi. 1970 yil oxirlarida, o'tkinchi baholarni belgilashdan daromad keltiradigan, maxsus valyuta munosabatlari mavjud edi.

3) AQSHda investitsiya amalga oshirilayotgan paytda, "Folksvagen" avtomobil qismlarini G'arbiy Germaniyada, Lotin Amerikasi hamda AQSHda

ishlab chiqarardi. Pensilvaniya loyihasi foydani ushbu korxonalarining biridan-ikkinchisiga ko`chirish imkoniyatini berardi.

4) "Folksvagen"ni AQSHda investitsiyalarni amalga oshirishi sharoitida, o`tkinchi baholami belgilash asosiy korxonalar va filiallar o`rtasidagi avtomobil kompaniyalariga xizmat ko`rsatish va savdoni ham qamrab olgandi. Shuningdek, uning tarkibiga qarzlarning asosiy summasini to`lash va G`arbiy Germaniyadagi asosiy kompaniyaga foizlarni to`lash, "Folksvagen Amerika" ning eski kapital uskunalarini sotish va amerika filialiga boshqarish uchun komissiyalar kirgan.

5) "Folksvagen" kompaniyasining AQSHda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilishga investitsiyalar kiritish haqidagi qarori, qator imtiyozlar olishni ko`zlardi. Xususan, o`tkinchi baholami belgilash kabi ustunlik xalqaro darajada foydalanish, investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatning qulay geografik joylashishi va h.k.lar. Investitsiyalarni jalb qiluvchi mamlakatning investitsiyalar motivini rag`batlantirishga intilishi natijasida, kompaniya faoliyati qisman subsidiyalar yordamida qo`llab-quvvatlandi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. *O`zbekiston bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish bo`yicha qonunchilik hujjatlari to`plami. T.: O`zbekiston. 2000.*

2. *O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2001 yil 22 iyundagi 263-sonli qarori.*

3. *O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini bixillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2001 yil 25 oktyabrdagi 422-sonli qarori.*

4. *A. Ishmuhammedov, R.S.Xasanov, K.A.Usmanova «Makro va mikroiqtisodiyot» ma`ruzalar matni. TDIU, TKTI-2011*

5. www.ziyonet.uz